ham namoyon qiladi. Qiyosiy tahlil asosida diniy-arxetipik obrazlarning badiiy imkoniyatlari keng ekanligi, ular orqali insonning ichki dunyosi, ma'naviy qarashlari va hayotiy qadriyatlari chuqur yoritilishi xulosaga kelindi. Bunday obrazlar adabiy asarlarda voqealarni rivojlantiruvchi vosita bo'lish bilan bir qatorda, asarning g'oyaviy-falsafiy mazmunini shakllantiruvchi muhim unsur vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar adabiyotshunoslik, mifopoetika va madaniyatlararo tadqiqotlar uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligi belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Jung C. G. The Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton: Princeton University Press, 1969. – 451 p.
(2). Milton J. Paradise Lost. London, Penguin Classics, 2003, 480 p.
(3). Lewis C.S. The Chronicles of Narnia. London, HarperCollins, 2001, 767 p.
(4). Tolkien J.R.R. The Lord of the Rings. London, HarperCollins, 2007, 1216 p.
(5). Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. Princeton: Princeton University Press, 2004, 416 p.
(6). Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Toshkent, "Yozuvchi", 1990, 544-bet.
(7). Navoiy A. Hayrat ul-abror. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989, 256 bet.
(8). Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, "Movarounnahr", 2009, 448-bet.

Qodirov Umidbek Shavkat o'g'li (NukusDPI "O'zbek adabiyoti" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi; E-mail: xonqaimi@mail.com; ORCID: https://t.me/c/2594165025/50/137; UDK 821.512.133.09)

SHE'RIY ASARDA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI: NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada she'riy asarda shakl va mazmun birligi masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. D.Quronov, H.Umurov, I.Sulton, A.Ulug'ov, D.Rahmonova, Q. va M.Yo'ldosh kabi adabiyotshunoslarning qarashlari qiyosiy o'rganilib, ularning bir-birini to'ldiruvchi jihatlari ochib beriladi. Nazariy xulosalar Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Usmon Nosir, Abdulla Oripov va Go'zal Begim she'riyatidan olingan misollar asosida amaliy tasdig'ini topadi. Tadqiqot natijasida shakl faqat mazmunni ifodalovchi tashqi vosita emas, balki mazmunni estetik jihatdan tashkil etuvchi faol poetik omil ekanligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *she'riy shakl, badiiy mazmun, poetik uslub, adabiyot nazariyasi, ritm, obrazlar tizimi, individual uslub, o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyati.*

ЕДИНСТВО ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ В ПОЭТИЧЕСКОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема единства формы и содержания в поэтическом произведении в теоретическом и практическом аспектах. Проведён сравнительный анализ взглядов литературоведов Д.Куронова, Х.Умурова, И.Султана, А.Улугова, Д.Рахмоновой, К. и М.Йулдошева, выявлены их взаимодополняющие стороны. Теоретические выводы подтверждаются на примерах поэзии Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура, Усмана Насира, Абдуллы Арипова и Гузаль Бегим. В результате исследования обосновывается, что форма является не просто внешним средством выражения содержания, а активным поэтическим фактором, эстетически организующим содержание.*

Ключевые слова: *поэтическая форма, художественное содержание, поэтический стиль, теория литературы, ритм, система образов, индивидуальный стиль, узбекская классическая и современная поэзия.*

THE UNITY OF FORM AND CONTENT IN A POETIC WORK: THEORETICAL PERSPECTIVE

Annotation. *This article analyzes the unity of form and content in poetic works from theoretical and practical perspectives. The views of literary scholars D.Quronov, H.Umurov, I.Sulton, A.Ulug'ov, D. Rahmonova, and Q. & M.Yo'ldash are comparatively examined, revealing their complementary aspects. Theoretical conclusions are substantiated through examples from the poetry of Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Usmon Nosir, Abdulla Oripov, and Go'zal Begim. The study demonstrates that poetic form is not merely an external means of expressing content, but an active poetic factor that aesthetically organizes content.*

Keywords*: poetic form, artistic content, poetic style, literary theory, rhythm, system of images, individual style, Uzbek classical and modern poetry.*

Kirish. Badiiy adabiyot inson tafakkuri va estetik dunyoqarashining eng mukammal ifoda shakllaridan biridir. Adabiy asarning badiiy qiymatini belgilovchi asosiy omillar sifatida uning shakli, mazmuni hamda uslubi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, she'riyatda shakl va uslub o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular muallifning individual poetik tafakkurini namoyon etadi. Chunki she'riy matnning badiiy ta'sir kuchi, ko'p jihatdan, aynan ritmik tashkil etilish, poetik sintaksis, obrazlilik tizimi hamda til vositalarining estetik funksiyasi orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli adabiyotshunoslik tarixida she'riy shakl va badiiy uslub masalalari deyarli barcha nazariy maktablar tomonidan turlicha talqin etilgan hamda har bir davrning ilmiy-estetik qarashlari asosida yangi mazmun bilan boyitilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi she'riy asarda shakl va mazmun birligi masalasini nazariy jihatdan tizimlashtirish hamda bu birlikning o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyati namunalarida qanday namoyon bo'lishini aniqlashdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: shakl va mazmun kategoriyalarining nazariy talqinlarini tizimlashtirish; ushbu kategoriyalarning badiiy ijod jarayonida namoyon bo'lish qonuniyatlarini aniqlash; nazariy xulosalarni mumtoz va zamonaviy she'riyat namunalari asosida amaliy tekshiruvdan o'tkazish.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Qiyosiy-tipologik tahlil metodi she'riy shakl va mazmun masalasiga oid oltita nazariy manba (D. Quronov, D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva lug'ati, A.Ulug'ov, H.Umurov, I.Sulton, D.Rahmonova, Q.Yo'ldosh va M.Yo'ldosh) o'zaro qiyoslanib, ularning bir-birini to'ldiruvchi jihatlari aniqlandi.
2. Tarixiy-nazariy tahlil metodi shakl va mazmun kategoriyalarining rus formal maktabi, strukturalizm, poststrukturalizm kabi turli ilmiy yo'nalishlardagi talqinlari tarixiy izchillikda ko'rib chiqildi.
3. Matnni yaqindan o'qish (close reading) metodi tanlangan she'riy namunalar (Navoiy, Bobur, Usmon Nosir, Abdulla Oripov, Go'zal Begim) vazn, qofiya, radif, badiiy san'atlar va obrazlar tizimi darajasida tahlil qilindi.
4. Sintez metodi nazariy xulosalar bilan amaliy (matniy) tahlil natijalari birlashtirilib, umumlashtiruvchi xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot manbalari. Nazariy manbalar: D.Quronovning "Adabiyot nazariyasi asoslari" (2018) va hammualliflikdagi "Adabiyotshunoslik lug'ati" (2010); A.Ulug'ovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi" (2008); H.Umurovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi" (2004); I.Sultonning "Adabiyot nazariyasi" (2005); D.Rahmonovaning monografiyasi (2024); Q. va M.Yo'ldoshning "Badiiy tahlil asoslari" (2016); shuningdek, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2005).

Badiiy (empirik) material: Alisher Navoiyning "Kecha kelgumdur debon..." g'azali, Zahiriddin Muhammad Boburning bayti, Usmon Nosirning "Yurak, sensan mening so'zim" she'ri, Abdulla Oripovning to'rtligi va Go'zal Begimning zamonaviy she'riy namunasi.

Natijalar. 1. Shakl va mazmun kategoriyalarining nazariy talqinlari. D.Quronov ta'kidlashicha, adabiyotshunoslikda "shakl" va "mazmun" tushunchalariga nisbatan bir qator muqobil yondashuvlar mavjud: rus formal maktabi vakillari "mazmun" o'rniga "material" atamasini qo'llashni taklif etsa, Y.M.Lotman bu juftlikni "struktura" va "ideya" kategoriyalari bilan, strukturalistlar "belgi" va "ma'no", poststrukturalistlar esa "tekst" va "mazmun" tushunchalari bilan almashtirishni ma'qul ko'radilar [5;134-b.].

D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva tomonidan tayyorlangan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da ta'kidlanishicha, shakl va mazmun – har qanday voqelikning ikki uzviy tomoni bo'lib, shakl narsaning bevosita idrok etiladigan tashqi ko'rinishi, mazmun esa o'sha shakl orqali anglashiladigan ichki mohiyatdir; bu ikkisi bir-biridan ajralmas holda mavjud bo'ladi [6;58-b.].

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida shakl "mazmunning mavjudlik tarzini, uni tashkil qilgan unsurlar va jarayonlar orasidagi o'zaro bir-biri bilan ichki hamda sirtdagi olam bilan bog'lanish yo'sinini anglatadigan tushuncha" sifatida, mazmun esa "ko'zda tutilgan obyektning aynan shu narsa–hodisa ekanligini tayin etadigan va shaklning mavjudligi, taraqqiyoti va o'zgarishiga sabab bo'ladigan unsur–jarayonlarning yig'indisi" sifatida ta'riflanadi [13;156-b.].

Bu qarashni adabiyotshunos A.Ulug'ovning quyidagi ta'rifi ham to'ldiradi: "Har bir narsa-hodisa o'ziga xos shakl va mazmunga ega. Shakl va mazmun narsa va hodisa mavjudligining namoyon bo'lish tarzidir. Ular bir-biri bilan mustahkam bog'liqdir" [9;48-b.].

H.Umurov fikricha, badiiy asarda mazmun va shakl tabiiy– yasama emas tarzda bir-biriga mos kelgandagina asar yaxlitligi yuzaga keladi. Mazmun g'oyaga, shakl esa badiiylikka bo'ysunsa-da, faqat ular bir-biriga singib ketgandagina haqiqiy badiiy asar vujudga keladi [10;100-b.].

Akademik I.Sulton mazkur masalaga badiiy ta'sirchanlik mezoni asosida yondashadi: mazmunning yetakchi o'rin tutishi shaklning ahamiyati kamligini bildirmaydi, faqat yuqori badiiy shaklda ifodalangan

mazmungina o‘quvchiga ta’sir ko‘rsata oladi; muallif bu birlikni “bir qushning ikki qanoti”ga o‘xshatadi [8;142-b.].

D.Rahmonova ta’kidlashicha, shakl ma’lum darajada barqarorlik xususiyatiga ega bo‘lib, uning o‘zgarishi tayyorgarlik, ijtimoiy talab yoki ijodkor istagi natijasida yuzaga keladi; shaklni zo‘rm-zo‘raki o‘zgartirish quruq shakllilikka olib keladi va o‘zini oqlamaydi [7;7-b.].

Q.Yo‘ldosh va M.Yo‘ldosh fikricha, adabiy asar mazmunini uning mohiyati, shaklini esa shu mohiyatning namoyon bo‘lish tarzi sifatida tushunish mumkin. Mazmun ijodkorning voqelikka bo‘lgan fikriy va hissiy munosabatini ifodalaydi [12;121-b.].

Olib borilgan qiyosiy tahlil natijasida olti olimning qarashlari muammoni olti xil, bir-birini to‘ldiruvchi darajada yoritishi aniqlandi: Quronov – nazariy-tarixiy, Umurov – ijodiy-amaliy, I.Sulton – estetik-ta’sirchanlik, Ulug‘ov – umumfalsafiy, Rahmonova – tarixiy-dinamik, Q.Yo‘ldosh va M.Yo‘ldoshlar esa individual-ijodkor nuqtayi nazaridan.

2. Mumtoz she’riyatda shakl va mazmun uyg‘unligining matniy tahlili. Alisher Navoiyning mashhur g‘azalidan olingan bayt:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi. [3;15-b.]

Tahlil natijasida aniqlandiki, baytda takrorlanayotgan “kelmadi” radifi (fe’l turkumiga mansub sodda radif) mazmunni semantik jihatdan kengaytiradi. Bayt aruz vaznida yozilgan bo‘lib, radifning barqarorligi baytning ritmik monandligini ta’minlaydi, bu esa mazmundagi umidsizlik kayfiyatini ohangdorlik orqali kuchaytiradi.

Zahiriddin Muhammad Boburning bayti:

Xating aro uzoring sabza ichinda lola,
Ul chashma purxumoring loladagi g‘azola. [1;53-b.]

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, birinchi misradagi "uzoring sabza ichinda lola" tashbehi mufassal namunasi bo‘lsa, ikkinchi misradagi "loladagi g‘azola" istiora san’atiga misol bo‘ladi. “Sabza”, “lola”, “g‘azola” obrazlarining o‘zaro uyg‘unligi tashqi bezak emas, balki yor husnining estetik konsepsiyasini yaratadi: “sabza” yoshlik va hayotiylikni, “lola” go‘zallikni, “g‘azola” esa noziklik va nafislikni anglatadi.

3. XX asr o‘zbek she’riyatida individual uslub tahlili natijalari. Usmon Nosir lirikasidan namuna:

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo‘r etding.
Ko‘zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim. [11;3-b.]

Tahlil natijasida she’r barmoq vaznida yozilgani, qofiya sxemasi abba (qamrab oluvchi qofiya) tarzida qurilgani aniqlandi: 1 va 4-misralar (“sozim”/"ishqibozim") hamda 2 va 3-misralar (“etding”/ ”berkitding”) o‘zaro qofiyalanadi. "Yurak"ka qilingan murojaat (xitob san’ati) personifikatsiya bilan uyg‘unlashib, lirik qahramonning ichki kechinmalarini ochiq ifodalash imkonini beradi.

Abdulla Oripov she’riyatidan namuna:

Goh butoqqa, goh gulga qo‘nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha. [4;14-b.]

Birinchi misradagi "goh...goh..." takrori qushning bezovta harakatini ritmik jihatdan kuchaytirsa, oxirgi ikki misradagi ritorik savol lirik qahramonning ichki ikkilanishini sintaktik darajada ifodalaydi. “Sayroqi qush” poetik ramz sifatida inson qalbining izlanish holatini ifodalaydi.

4. Zamonaviy she’riyatda shaklning yangi imkoniyatlari. Go‘zal Begim she’riyatidan namuna:

Qo‘limda baxtning kalitini burasam,
Uchib ketar qanotsiz qushlar. [2;10-b.]

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, “qanotsiz qushlar”ning uchishi mantiqiy jihatdan bir-biriga zid tushunchalarning yonma-yon qo‘yilishidan hosil bo‘lgan paradoks san’atining namunasidir. “Kalit” obrazi erkinlik yoki imkoniyat ramzi sifatida, “qushlar” esa cheklangan orzu-intilishlar ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shoira an’anaviy tasvir usullaridan voz kechib, assotsiativ tafakkurga asoslangan poetik shaklni yaratadi.

Muhokama. D.Quronov tomonidan keltirilgan nazariy qarashlar shakl va mazmun masalasining adabiyotshunoslik tarixida turli metodologik yondashuvlar asosida talqin etilganini ko‘rsatadi. Bizningcha, bu qarashlar zamonaviy poetik tahlilda shakl va mazmunni qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruv-

chi kategoriyalar sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek she’riyatini tahlil qilishda formalistik yondashuvning o‘zi yetarli bo‘lmay, poetik shaklning semantik funksiyasini ham hisobga olish talab etiladi.

Formalizm, strukturalizm va poststrukturalizm vakillari ushbu kategoriyalarni turlicha izohlashga intilgan bo‘lsalar-da, ularning barchasini birlashtiruvchi jihat badiiy asarning ichki tuzilishini ilmiy asosda anglashga bo‘lgan intilishidir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, zamonaviy adabiyotshunoslik shakl va mazmunni qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki badiiy tafakkurning yagona estetik tizimini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq kategoriyalar sifatida baholaydi.

Uch nazariy yondashuvni solishtirsak, Quronov shakl-mazmunni nazariy kategoriya, lug‘at va ensiklopediya umumfalsafiy-ta’rifiy, Ulug‘ov esa umumfalsafiy qonuniyat sifatida talqin qiladi, bu yondashuvlar bir-birini to‘ldirib, muammoni turli darajada yoritadi. Agar Quronov muammoni nazariy maktablar evoutsiyasi nuqtai nazaridan yoritsa, Umurov uni badiiy ijod qonuniyatlari nuqtayi nazaridan, ya’ni shakl–mazmun uyg‘unligining amaliy namoyon bo‘lishi orqali izohlaydi. Agar Umurov mezon sifatida shakl–mazmunning tabiiy monandligini olsa, I.Sulton bu monandlikning natijasi o‘quvchiga ko‘rsatiladigan estetik ta’sirni mezon qilib qo‘yadi. Agar Quronov, Umurov va Ulug‘ov shakl-mazmun birligini statik kategoriya sifatida tahlil qilgan bo‘lsa, Rahmonova masalaga tarixiy-dinamik nuqtai nazardan yondashadi. Agar yuqoridagi olimlar shakl-mazmun birligini umumnazariy yoki tarixiy tekislikda ko‘rgan bo‘lsa, Q.Yo‘ldosh va M.Yo‘ldoshlar masalani individual ijodkor shaxsi darajasiga tushiradi.

Tahlil qilingan poetik namunalar shuni ko‘rsatadiki, shakl va mazmun uyg‘unligi turli davr va adabiy-estetik yo‘nalishlarga mansub ijodkorlar she’riyatida o‘ziga xos poetik vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ushbu uyg‘unlik aruz tizimi, qofiya, radif hamda ramziy obrazlar vositasida yuzaga chiqsa, Usmon Nosir va Abdulla Oripov lirikasida individual poetik tafakkur, emotsional sintaksis hamda falsafiy mushohada ustuvorlik kasb etadi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida esa Go‘zal Begim poetikasida assotsiativ tafakkur, paradoksal obrazlar va ramziy ifoda usullari shaklning yangi estetik imkoniyatlarini namoyon etadi.

Mazmun faqat leksik birliklar orqali emas, balki poetik shaklning ritmik va kompozitsion vositalari yordamida ham yuzaga chiqmoqda. Bu holat shaklning mazmunni estetik tashkil etuvchi faol unsur ekanligini tasdiqlaydi. Demak, poetik shakl mazmunning falsafiy qatlamini yuzaga chiqarishda faol estetik vosita vazifasini bajaradi.

Xulosalar. Shu tariqa, tadqiqot natijasida quyidagi aniq xulosalarga kelindi:

1. Poetik shakl har bir tarixiy davrda o‘ziga xos texnik vositalar (aruz – barmoq – assotsiativ tuzilma) orqali yangilanib borgan, biroq uning mazmunni estetik jihatdan tashkil etuvchi faol vazifasi barcha davrlarda saqlanib qolgan.

2. Shakl va mazmunni alohida-alohida emas, balki yagona poetik tizim sifatida tahlil qilish, xususan, vazn, qofiya, radif va badiiy san’atlarni mazmun bilan bog‘liq holda o‘rganish she’riy matnning badiiy mohiyatini ancha chuqurroq anglashga imkon beradi.

3. Individual poetik uslub aynan shakl va mazmunning ijodkorga xos tarzda uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi, bu esa bir xil mavzuning turli shoirlar ijodida mutlaqo boshqacha badiiy ko‘rinishga ega bo‘lishini izohlaydi.

Kelgusi tadqiqot istiqbollari. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu masalani zamonaviy o‘zbek she’riyatining boshqa vakillari (masalan, erkin she’r namunalari) misolida kengroq o‘rganish, xususan, vazn tizimidan voz kechilgan she’riy shakllarda mazmun-shakl uyg‘unligining qanday ta’minlanishini tahlil qilish istiqbolli yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bobur Z.M. Har kimki vafo qilsa. Toshkent, “Yangi avlod”, 2003, 53-bet.

(2). Go‘zal Begim. Uchayotgan yaproq soyasi. Toshkent, “Yozuvchi”, 2002, 10-bet.

(3). Navoiy A. Orazin yapqoch ko‘zumdin. Toshkent, “Zabarjad Media”, 2023, 15-bet.

(4). Oripov A. Tanlangan asarlar. I jild, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000, 14-bet.

(5). Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, Navoiy universiteti, 2018, 134-bet.

(6). Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, “Akademnashr”, 2010, 58-bet.

(7). Rahmonova D. Tavallo ijodida poetik shakl, mazmun va obraz yangilanishi tamoyillari. Monografiya, Toshkent, “Bookmany Print”, 2024, 7-bet.

(8). Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2005, 142-bet.

(9). Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008, 48-bet.
(10). Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004, 100-bet.
(11). Usmon Nosir. Yurak, sensan mening so‘zim. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2018, 3-bet.
(12). Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, “Kamalak”, 2016, 121-bet.
(13). O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild, Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

Xojamuratov Ramil Ibraximovich (Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

IBRAYIM YUSUPOVNING «BERDAQQA» SHE’RIDA TARIXIY SHAXS OBRAZINING LINGVOPOETIK MODELLASHUVI VA INGLIZCHA TARJIMADA QAYTA YARATILISHI

Annotatsiya. *Maqolada Ibroyim Yusupovning “Berdaqqa” she’rida tarixiy shaxs obrazini shakllantiruvchi leksik-semantik, metaforik-predikativ, sintaktik va matniy mexanizmlar o‘rganildi. She’rning qoraqalpoqcha asliyati R.Rzayeva amalga oshirgan inglizcha tarjima bilan qiyoslandi. Tahlil natijasida Berdaq obrazi alohida portret belgisi orqali emas, balki qo‘shiq, yirtiq uy, to‘rg‘ay, qaldirg‘och, Prometey va Bayron kabi mikrobrazlarning yagona semantik markazga birlashishi asosida yaratilgani aniqlandi. “Sen qosıqsań” konstruksiyasidagi metaforik identifikatsiya “shoir-qo‘shiq” konseptual modelini hosil qilishi asoslandi. Inglizcha tarjimada metaforik yadro saqlangan bo‘lsa-da, eksplikatsiya, me’yorlashtirish, konkretlashtirish, semantik torayish va harakat dinamikasining neytrallashishi kuzatildi.*

Kalit so‘zlar: *Ibroyim Yusupov, Berdaq, lingvopoetika, poetik obraz, tarixiy shaxs, metaforik predikatsiya, mikrobraz, makroobraz, semantik deviatsiya, inglizcha tarjima.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ОБРАЗА ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В СТИХОТВОРЕНИИ ИБРАИМА ЮСУПОВА «БЕРДАККА» И ЕГО РЕКОНСТРУКЦИЯ В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ.

Аннотация. *В статье исследуются лексико-семантические, метафорико-предикативные, синтаксические и текстовые механизмы формирования образа исторической личности в стихотворении Иброима Юсупова «Бердак». Оригинальная каракалпакская версия стихотворения сравнивается с английским переводом Р.Рзаевой. В результате анализа установлено, что образ Бердака создан не посредством отдельного портретного знака, а на основе интеграции микрообразов, таких как песня, юрта, воробей, ласточка, Прометей и Байрон, в единый семантический центр. Доказано, что метафорическая идентификация в конструкции «Sen qosıqsań» формирует концептуальную модель «поэт – песня». Хотя метафорическое ядро сохранено в английском переводе, наблюдаются экспликация, нормализация, конкретизация, семантическое сужение и нейтрализация динамики движения.*

Ключевые слова: *Ибраим Юсупов, Бердак, лингвопоэтика, поэтический образ, историческая личность, метафорическое предикирование, микрообраз, макрообраз, семантическое отклонение, английский перевод.*

LINGUAPOETIC MODELING OF THE IMAGE OF A HISTORICAL PERSON IN IBRAIYM YUSUPOV’S POEM "BERDAQ" AND RECONSTRUCTION IN ENGLISH TRANSLATION

Annotation. *The article examines the lexical-semantic, metaphorical-predicative, syntactic and textual mechanisms involved in constructing the image of a historical personality in Ibrayim Yusupov’s poem “To Berdakh”. The Karakalpak original is compared with R. Rzayeva’s English translation. The analysis demonstrates that the poetic image of Berdakh is formed not through a single portrait feature but through the semantic integration of such micro-images as song, a dilapidated house, a lark, a swallow, Prometheus and Byron. The construction “Sen qosıqsań” establishes a metaphorical identification and produces the conceptual model poet is song. Although the central metaphor is retained in translation, the English version displays explicitation, normalisation, specification, semantic narrowing and neutralisation of verbal dynamics.*

Keywords: *Ibrayim Yusupov, Berdakh, linguopoetics, poetic image, historical personality, metaphorical predication, micro-image, macro-image, semantic deviation, English translation.*

Kirish. Bugungi kunda jahon filologiyasida badiiy matnni lingvopoetik jihatdan o‘rganish, undagi tarixiy shaxs obrazining til va uslub vositalari orqali shakllanish xususiyatlarini aniqlash hamda bunday obrazlarning tarjima jarayonida qayta yaratilishini tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisobla-